

## Korrupsiyaga qarshi kurash omillari

Joriy yilning 3 - fevral kuni Universitetimizdagi yoshlar yetakchilari va guruh sardorlari bilan birgalikda “Ta’limda korrupsiyaga o’rin yo’q” mavzusida onlayn davra suhbatini o’tkazildi. Davr suhbatida universitet yoshlar masalalari va ma’naviy - ma’rifiy ishlar bo’yicha prorektor R.Choriyev, Oliy majlis qonunchilik palatasi deputati A.To’laboyev, Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komleans nazorat” tizimini boshqarish bo’limi boshlig’i A.Gapparov, yuristkonsult U. Muratova hamda universitet yoshlar ittifoqi boshlang’ich tashkiloti yetakchisi Rasulov ishtirok etishdi. Davr suhbatini universitet birinchi prorektori R.Choriyev kirish so’zi bilan boshlab berdi. U hozirgi kunda universitetimizda korrupsiya illatiga qarshi keskin choralar ko’rilayotganligi va har bir professor o’qituvchi va talabalar alohida e’tiborda ekanligini aytib va darslar an’anaviyga o’tishi bilan yuzma-yuz ko’rishib shu xususda yana ko’proq tadbirlar o’tkazish imkoni borligini e’tirof etdi.



Oliy majlis qonunchilik palatasi deputati A.To’laboyev hozirgi vaqtda respublikamiz miqyosida korrupsion holatlarning oldini olish qanday amalga oshirilayotganligi haqidagi fikrlari bilan o’rtoqlashdi. Aynan ta’lim sohasidagi korrupsion holatlar kechirilib bo’lmamligni ta’kidlab o’tdi. Korrupsion holatlarning javobgarligi kuchaytirilayotganligi va bu to’g’risida gapirib bir necha qonun hujjatlarini keltirib o’tdi. Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komleans nazorat” tizimini boshqarish bo’limi boshlig’i A.Gapparov bu borada universitetimizda amalga oshirilayotgan ishlar to’g’risida batafsil to’taldi. Bizning maqsadimiz korrupsion holatlarning oldini olishdan iborat deb ta’kidlab o’tdi. Har bir talaba o’zining fuqarolik va talabalik burchini to’liq bajarsa hech qachon salbiy oqibatlarga duch kelmasligini yana bir bora eslatib o’tdi. Tez kunlarda universitetimizda tashkil etiladigan “Komleans nazorat” tizimini boshqarish bo’limi qoshidagi “Yoshlar klubi” faoliyati to’g’risida ma’lumot berib o’tdi. Universitetimiz matbuot kotibi R.Jumaniyozov ish faoliyatida korrupsion holatlarga qo’l urib keyin qattiq pushaymon bo’lgan kimsalar haqida gapirib berdi. Umuman poraxo’rlik ildizi to’g’risida chuqur izoh berib o’tdi. Faol talab yoshlarimiz o’zlarining fikr mulohazalarini bayon etib o’tishdi. Universitet yoshlar ittifoqi boshlang’ich tashkiloti yetakchisi Davron Rasulov davra suhbatiga moderatorlik qilish asnosida talaba yoshlarga kelajakda yaxshi mutaxassis bo’lish va ilg’or korxonalarda ish faoliyati olib borish uchun albatta, yaxshi bilimga ega bo’lish kerakligini bir necha bor ta’kidlab o’tdi. Davra suhbatini qiziqarli va maroqli tarzda kechdi.

**Universitet matbuot xizmati**